XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-fevral VII-4-10-7-100-K/25 Payariq tumani

2025-yilda Payariq tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, shuningdek, tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2025-yil 13-yanvardagi 01-00850-sonli xatini inobatga olib Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VII chaqiriq to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2025-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq tumanda 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq tumanda 2025-yilda yer qa’ridan foydalanganlik va noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Eshonqulov), tuman Soliq inspeksiyasi (D.Esirgapov)lar birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash chorasini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Nishonov)ga ushbu qarorning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Maxammatov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Eshonqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi MAXKAMOV SOBIR TUXTAMISHOVICH

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining
2025-yil 3-fevraldagi
VII-4-10-7-100-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq tumanda 2025-yilda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar
(suv hajmiga nisbatan)

T/R	Tuman va shahar nomi	Er usti suv manbasi			Er osti suv manbasi		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish
1	Payariq tumani	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15	1,15

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining
2025-yil 3-fevraldagi
VII-4-10-7-100-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq tumanda 2025 yilda yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/R	Tuman va shahar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar
1	Payariq tumani	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,2	1,2